

BADIIY MATNDA LAQABLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Ro'ziyeva Xurshida O'tkir qizi
Qarshi davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada laqablarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Badiiy asardagi laqablar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: antroponimiya, laqab, lingvopoetika, komik effekt, badiiy matn.

Badiiy asarlarda ham qahramonlarga nom tanlash birmuncha mulohaza talab qiladi. Ba'zi asarlarda qahramon ismi asarda ifodalanayotgan g'oyani ochib berishda muhim vosita sanaladi. Chunki badiiy asarda qo'llanilgan ayrim ismlar yozuvchining badiiy-estetik niyatini aniqlashga yordam beradi. O'zbek adabiyotida personaj xarakter-xususiyatini ochib beruvchi, tagma'noli kulgi yaratuvchi ismlar Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va boshqa yozuvchilarning hajviy asarlarida juda ko'p uchraydi. Mahoratli yozuvchilarimiz qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o'rtasida mushtaraklik o'rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar¹.

Ismlar qatorida laqablar ham badiiy asarda ma'lum bir poetik vazifa bajarib kelishi mumkin. Laqabning mohiyati va ta'rifiga to'xtalsak, Ernest Begmatov unga quyidagicha ta'rif berganini guvohi bo'lamiz: "Laqab – shaxsning tashqi ko'rinishi yoki xarakteridagi ma'lum belgi yoki xususiyatiga ko'ra, uning ijtimoiy ahvoli yoki nasl-nasabiga ko'ra nomlanishidir. Laqablar ham atoqli otdir²".

Tilshunoslikda tadqiqotchining laqablar yuzasidan bildirgan turli fikrlarini kuzatish mumkin. Jumladan, Chobanov laqabga shunday ta'rif beradi: "Laqab – bu norasmiy qo'shimcha nom bo'lib, jamiyatda bir kishini ikkinchisidan farqlashga xizmat qiladi³".

A. Pashayevning fikricha, laqab shaxs ismiga tirkaladigan qo'shimcha nom kishining biror belgisi yoki kasb-koriga ishora qiladi⁴.

Laqabga berilgan turli mualliflar izohlarini umumlashtirgan nomshunos E. Begmatov laqabni ta'riflashda quyidagi xususiyatlarni hisobga olinishini ta'kidlaydi:

- Laqab ham shaxs nomidir, u kishining ismiga tirkaladi;
- Laqab shaxsga qo'yiladigan qo'shimcha nomdir;
- Laqab taxallus, familiya, titul ma'nolarini ham anglatadi;
- Laqab atoqli ot. Shuning uchun ham antroponimiya birligi hisoblanadi;
- Laqab o'z egasining biror jismoniy fazilati yoki nuqsi, aqliy iste'dodi va kasbi, odablar orasida o'zini tutishi, biror ijobiy yoki g'ayritabiiy harakatiga ishora qiladi;
- Laqab ism kabi qadimiydir;
- Laqab shaxsga hazil-mutoyiba qilib berilgan nomdir;

¹ M. Yo'ldoshev, Z. Isaqov, Sh. Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T., 2010, 49-bet.

² Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – B.50

³ Чобанов М. Н. Основы азербайджанской антропонимики. С.28.

⁴ Пашаев А. М. Прозвища в азербайджанском языке. С.6.

- Laqab shaxsning norasmiy nomidir. U ko'proq xalq tilida, lahja va shevalarda yashaydi;

- Ko'pgina laqablarning motivativ asosi ko'proq tor doirada ma'lum bo'ladi (oila a'zolari, kichik jamoa doirasi, laqabni qo'ygan shaxs va boshqalar);

-Laqab familiya va ota ism udum bo'lgunga qadar ular vazifasini bajargan⁵.

Laqablar funksional xususiyatiga ko'ra kishi ismlariga yaqin turadi va ko'p holda ular bilan birga qo'llaniladi. Laqablar hozirgi davrdagidek familiya va otasmlar udum bo'lmagan davrlarda o'sha nomlar o'rnini bosgan. Bir xil ismli shaxslarni o'zaro farqlashda laqablar, ayniqsa, qo'l kelgan. Avvallari nominativ vazifa bajargan laqablar asta-sekin uslubiy vazifa bajarishga o'ta boshlagan.

Laqablarni nutqda qo'llanishi, funksional shakliy belgisiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

-atoqli ot sifatida mustaqil qo'llanuvchi laqablar;

-shaxs ismi bilan birga keluvchi laqablar⁶.

Mustaqil qo'llanuvchi laqablar bosh harf bilan yoziladi shaxsning ismi bilan parallel yashaydi. Bunga Yosh ijodkor Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanidagi Ulug' Kursdosh, Qoravoy, Qiztaka, Telefonchi obrazlarini misol qilsak bo'ladi. Asardagi Shodi cho'loq, Umri qozoq, Ahmadbek pistachi, Sharq pufakchi, Hamid novvoy, Beshim cho'pon kabi laqablarni shaxs ismi bilan birga keluvchi laqablar sirasiga kiritish mumkin. Quyida asardagi ushbu laqablar izohini keltiramiz: *Ulug' Kursdoshning kallasi zo'r edi, institutda qoldi. Tarix fanlari doktori, professor, balki hozir akademik bo'lgandir. Asar qahramonining bobosi Ulug' Kursdosh bilan yaqin do'st edi, o'nta qo'yni puli evaziga uni talabalikka qabul qiladi. Qoravoy uxlash va ovqatlanishdan tashqari yana bir ish qilardi. Har kuni uch soat vannani band qilib, hamma yerga suv sochib cho'milardi. – Oqarishim kerak, jo'ra. Oppoq bo'lsam. Shaharda shuning uchun o'qiyapman, axir... Qizlar haqida gurning beradi Qiztaka. Ammo shu mavzuga ham quloq tutmaydigan Telefonchi. U o'yinlar, video va xabarlar botqog'iga botib ketgan... Men mudrayman. Telefonchi o'ynaydi. Vannada suv sharillaydi. Qiztaka qizlarni o'raydi. Biz – institutga borib keluvchilar!* (Jovliyev J. Qo'rma.)

Badiiy matnda laqablar asar qahramonlarini u yoki bu tomondan tavsiflash, ularga xos ayrim belgi-xususiyatlarni ifodalash, kitobxon hissiyotiga ta'sir qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'tkir Hoshimovning "Ikki karra ikki besh" satirik qissasida bosh qahramon - Qo'shoqvoy. Asarda bu ismning qo'yilishi haqida shunday yozilgan: "...mening bitta akam, yana bitta opam tug'ilibdi-yu, akam chillasi chiqmay, opam yoshiga yetmay o'libdi bechora. Shuning uchun qo'sha-qo'sha farzandlar ko'raylik degan niyatda bizga Qo'shoqvoy deb ism qo'yishgan ekan"⁷. Asarda qahramon Qo'shoqvoy emas, "Qo'shovoy" deb qo'llanadi. Qo'shovoy ism tarkibida "qo'sh" so'zi bor. Asar qahramoni Qo'shovoyning g'alati odati bor: hamma narsani ko'paytirib, qo'shib aytadi. Asar nomining "Ikki karra ikki besh" deyilishiga ham ana shu qahramon tilidan olingan. Bu nomda asar g'oyasi bilan bog'liq ramziy ma'no ham bor. Asar 1986-yil

⁵ Begmatov E. O'zbek tili antroponomikasi. -Toshkent, 2013. -B. 51-52.

⁶ Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. -Toshkent, 2017. -B. 120.

⁷ O'tkir Hoshimov. Bahor sog'inchi. T.,2001. 124-bet.

yozilgan. Yozuvchi turg'unlik davri, o'sha davrga xos qo'shib yozish kabi illatlarni tanqid qilib, kulgi ostiga olgan holda voqealarni bayon qiladi.

Laqab shaxsning ko'rinishi, mashg'uloti yoki biror xususiyatiga qarab ijobiy yoki salbiy ma'noga ega bo'ladi. Demak, shu nom – laqab asarda ifodalanayotgan maqsadni yoritishda ma'lum vazifa bajaradi.

O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida "Po'stdumbali moshkichiri" hikoyasida Naim sartarosh tomonidan Olim paravoz, Hakim naynov deya kishilarning aynan laqab qo'yib qo'llaganini ko'rish mumkin. Laqab bilan kishi nomini aytish o'sha odamning ma'lum xususiyatini kamchilik sifatida bo'rttirib ko'rsatish uchun yoki salbiy munosabat ifodalash maqsadida atayin qo'llangan.

“–O'zingni soddalikka solma, uka. Man hammasini bilaman. “Ohoni” bo'lmasa ...Olim paravozni gazeta maqtab chiqarmidi? Birinchi bo'lib paravoz haydaganmish. Yolg'on! Qachon qarasa, ko'mirga botib yuradigan rabochiy edi. Ha, xo'p, boringki, haydagan bo'lsin. Ha, nima qipti? Hakim naynov-chi! Birinchi o'qituvchilardan emish. Man bilmasam ekan uni! ...O'lguday zehni past bola edi. Ta'g'in bular personalniy pensaner emish!”

Ta'kidlash kerakki, laqablarning badiiy matndagi lingvopoetik vazifalaridan biri bu komik effektini hosil qilishidir. Bunda ijodkor subyektiv munosabatini kuchli sarkazm orqali yoki aksincha ifodalashi mumkin. Shuningdek, laqab askiyada ham muhim o'rin tutadi. Bu haqda Abdulla Qahhor shunday deydi: *“Askiyada bir ilmoq bo'lmasa kulgi chiqmaydi. Ilmoq xuddi shu laqabdir. Askiya hozirgi vaqtda ikki vazifaga xizmat qilishi kerak: biri xalqimizning yangi hayot yo'lidagi maqsadini va kurashini ifoda qilishi, ikkinchisi, hayotimizdagi salbiy holatlarni tanqid qilib, xalqimizni estetik tomondan tarbiyalashi zarur. Laqab – askiyaning bu vazifasini yengillashtiradi⁸”*.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi obrazlar jamiyatning turli qatlamlariga mansubligi bilan diqqatga sazovor. Bu holat laqab qo'yishning qay darajada keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Asarda O'g'iloy azayimxon, Toshdomla azayimxon, Tursun tabib, To'lqin Mirob, Otajon polvon kabi kasb-hunar nomlarini laqab sifatida ishlatiganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Undan tashqari asarda Ochil karnay laqabini ham uchratish mumkin. *“Boshlang'ich sinflardan tashqari hamma maktab bolalari ertadan paxta yig'im terimiga!” degan topshiriq ham keldi, Sotvoldivoy. Bunga nima deysan? Ertadan Ochil karnay ham ko'chada aylana boshlaydi. Aylanib, paykaldan tashqarida bitta odam ko'rsa, og'ziga karnayini tutib hayqirganicha, mashinasi bilan naq ustiga bostirib boradi. Borib: “Nega dalada, xalqning yonida emassan? Yo partiyaga, xukumatimizning paxta siyosatiga qarshimisan?..” deya baqirib, barini oldiga solib dalaga haydaydi.*

Nazar Eshonqulning "Qo'l" hikoyasida Salom ismli shaxsning ikki laqabi haqida so'z boradi: *“... u bola-chaqasi bilan tandir qilib sotar, shu sababli uni goh “Salom tegirmonchi” goh “Salom tandirchi” deb chaqirishardi. Ba'zi tersotaliklar “Salomboyni bitta laqab bilan chaqiraylik, odam chalg'ib ketyapti!” deganda Panji muallim “ikkala laqab ham bir-biriga bog'liq, tegirmon aylanib tursa, tandirdan non uziladi, un bo'lmasa tandirni kim oladi?!” degan ekan.*

⁸ Muhammadiyev R. Askiya. – Toshkent, 1970. – B.9.

Hikoyada Mulla Abzal, Azim oqsoqol, Rajab cho'pon, Mulla Keldiyor, Panji muallim, Asrorqul montyor kabi kasb-hunarga oid laqablarning keltirilishi asar badiiy quvvatini yanada oshirgan. *“Tandirchi Rajab cho'ponning uyiga buriladigan muyulishdagi to'nkaga o'tirvolib, qishloqqa kelayotgan har bir mashinani tasbehga tashlab o'girib o'trigan mullani muborak chorshanba kuniga tushlikka – xudoyi oshga taklif qildi. Osh kechagi qizil tayoqli Keldiyor “gai”ning – bugungi mullaning jon-u dili edi: bir paytlar Keldiyor Qiziltepa postida turganda ba'zida jarimaga “choyxona oshi jazosi”ni ham qo'llardi: shu sababli osh bo'lgan joydan bo'yin tovlamas, buni butun qishloq ahli yaxshi bilardi”.*

Surxon vohasining ijodkori Qo'chqor Norqobilning “Nozi... Nozigul” hikoyasida ham turli xil laqablarni uchratishimiz mumkin. Hikoyada Xolli kal, In'om injiq, Chori kantuj, Toyir polvon, Hamid chavandoz, Turdiboy polvon, Haydar bakovul laqablari keltirilgan. *“Sinf doshi In'om injiq to'yga chaqiraverib qo'ymadi... Injiq tumandagi gaz idorasining kattasi. Dami o'tkir. Qishloqdoshlarga Kunduz kuni uyida to'y berdi. Nufuzlilar tuman markazidagi restoranga, kechki bazmga aytili. Odmilar oldidan o'tishga hayiqadigan yakka-yu yagona hashamatda Injiq to'y bermay kim to'y bersin”.*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, laqablarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilining boy imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritishga yordam beradi. Laqablar badiiy matnda xilma-xil xususiyatni namoyon qilib, yozuvchining badiiy ifoda imkoniyatlariga ko'lam bag'ishlagan. Matnning estetik ta'sir quvvatini oshiradigan vosita sifatida lingvopoetik maqsadni shakllantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Yo'ldoshev, Z. Isaqov, Sh. Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T., 2010, 49-bet.
2. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – B.50
3. Чобанов М. Н. Основы азербайджанской антропонимики. С.28.
4. Пашаев А. М. Прозвища в азербайджанском языке. С.6.
5. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. –Toshkent, 2017. –B. 120.
6. O'tkir Hoshimov. Bahor sog'inchisi. –T.,2001. 124-bet.
7. Muhammadiyev R. Askiya. – Toshkent, 1970. – B.9.